

Yoshlarni axloqiy va estetik tarbiyalashda ma’naviy qadriyatlarning o’rni

Sharqning buyuk pedagog bobolaridan biri Jaloliddin Dovoniy va undan 200 yil keyin yashagan nemis pedagogi Adolf Disterveg «Bola qalbi toza yozuv taxtasiga o’xshaydi. Unga nima yozilsa (kiritilsa), shu uning taqdirini yaratadi» deyishgan.

Darhaqiqat yoshlarni axloqiy va estetik tarbiyalash katta ijtimoiy masala. U ona tilidan boshlanib, barcha ijtimoiy-ma’naviy jabhalarni ham qamrab oladi. Inson axloqiy va estetik tarbiyasi shakllanishida katta-kichik yoki muhim va muhim sanalmaydigan narsa yo’q. Hamma narsa – insonni o’rab olgan tabiiy va ijtimoiy muhit, insonga ta’sir etuvchi barcha ma’naviy-tarbiyaviy va mafkuraviy omillarning roli katta.

Bolaning yoshligidanoq axloqiy-estetik madaniyati mukammal bo’lsa yaxshi va yomon, go’zal va xunuk xususiyatlar, narsalar farqini chuqurroq anglab yetadi. Mana shunday tushunchalarni yosh bolaning ongiga singdirishda, avvalo, ularning qiziqishlarini hisobga olish lozim. Agar bolada biror narsaga, sportga yoki san’atning ma’lum bir sohasiga qiziqish borligini ota-onalar sezsalar, ularni shu qiziqishlariga jalb etishi foydalidir.

Ayrim hollarda ota-onalar bolalarining qiziqishlarini hisobga olmasdan, o’zlarini ko’ngillariga yoqqan mashg’ulotlarga jalb etishadi. Shuningdek, ba’zi ota-onalar o’z ishlari bilan band bo’lib bola tarbiyasiga, uning xulq-atvori va estetik tarbiyasiga yaxshi e’tibor berishmaydi.

Bunday holatda tarbiyalangan bola jamiyatda o’zining o’rnini topishi qiyin kechadi. Shu sababdan har bir ota-onalar o’z bolasining tarbiyasi va estetik dunyosi uchun jamiyat oldida javobgardir. Ijtimoiy hayotimizga

«ommaviy tarzda xorij filmlari va nashrlarining kirib kelishi, audio va video kassetalarning keng tarqalishi, hali iymon-e'tiqodi, milliy o'zligi to'la shakllanib ulgurmagan yoxud saviyasi g'o'r, mentaliteti sust odamlarga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Kiyinish va muomala odobi, milliy axloqiy mezonlar, musiqa madaniyatida milliylikni xira tortishi, mumtoz musiqa va adabiyotdan, bobolar o'giti va ibratlaridan, kitob mutolaa qilishdan cheklanish, albatta milliy qadriyatlar qimmatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi mumkin emas». Shunday ekan, har bir oila yoshlar axloqiy va estetik tarbiyasini faqat xursandchilik, aysh-ishrat, maishatbozlik, tashqi bezirimlik yoki soxta tantanavorlik bilan bog'lamasdan, go'zal milliy-badiiy qadriyatlarimiz asosida kamol toptirib borishi maqsadga muvofiqdir.

Bunday holatlar oddiy o'zbek oilasida ota-onaning o'zaro muomala madaniyati, mehr-muhabbati, shirin so'zlari, turmush tarzi orqali yoshlar qalbiga singib boradi. Yuksak estetik tarbiyalı insonlar bilan muloqotda bo'lish hayotga nisbatan zavq-shavq bilan munosabatda bo'lish, voqelikni go'zallik qonunlari asosida idrok etish va o'zgartirish salohiyatini kuchaytiradi.

Yoshlarning ma'naviy-estetik tarbiyasini shakllanishida oilaviy muhit va bolalar dunyosiga ta'sir etuvchi narsalarning naqadar katta tarbiyaviy kuchga ega ekanligini Prezident Islom Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch» kitobida ajoyib bir misol bilan tushuntirib beradi.

«Yoshlarning ma'naviy olamini bolalikdan boshlab ezgu g'oyalar asosida shakllantirish va kamol toptirish haqida gap ketar ekan, - deydi Islom Karimov, - yana bir muhim masala xususida to'xtalib o'tish o'rini,

deb o'ylayman. U ham bo'lsa, dunyoga hayrat ko'zi bilan boqib, undan o'zicha ma'no topishga intiladigan murg'ak farzandlarimizning qiziqish va hissiyotlariga mos qo'g'irchoq va o'yinchoqlar ishlab chiqarish masalasidir.

Bir qaraganda, bu muammo arzimas narsa bo'lib tuyulishi mumkin. Lekin har qaysi go'dak ilk bor olamni o'z atrofidagi ashyo va buyumlar, jumladan, o'yinchoqlar orqali anglashini inobatga oladigan bo'lsa, ularning inson tarbiyasidagi o'rni beqiyos ekani ayon bo'ladi. O'yinchoqlar obrazi bolaning murg'ak tasavvuriga bamisoli toshga o'yilgan naqshdek muhrlanib, uning ongida bir umr saqlanib qoladi. Go'dakning ulg'ayib, kasb tanlashi, kelajakda qanday yo'ldan borishi, o'zining hayot tarzini qanday axloqiy-ma'naviy asoslarga qurishi ham, hech shubhasiz, uning bolalikda qanday o'yinchoqlar bilan oshno bo'lib o'sgani bilan belgilanadi».

Islom Karimov hozircha bolalarimiz xorijda ishlab chiqilgan, milliy tabiatimizdan uzoq bo'lgan o'yinchoqlar va qo'g'irchoqlar o'ynab ulg'ayishayotganini afsuslanib qayd etadi. Shuningdek, Yurtboshimiz Marg'ilon shahrining 2000 yillik to'yi munosabati bilan bozordagi xalq amaliy san'ati vakillari bilan uchrashgan chog'ida ular orasida milliy qo'g'irchoqlar tayyorlash bilan shug'ullanadigan bir ayolning ajoyib ishlari bilan tanishadi va unga yuksak baho beradi. Bunday fidoyi insonlar yurtimizda ko'plab topilishini, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash ma'naviy tarbiya faoliyatimizga, xususan, milliy hunarmandchilikning noyob turlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi.

Agar oiladagi yoshlar, bolalar va ota-onas, aka-uka, opa-singillar o'rtasidagi axloqiy-estetik munosabatlarga qaytadigan bo'lsak, bu

jarayonda kattalar zimmasiga yana katta vazifalar yuklanadi. Chunki, bolalar o’z tabiatini jihatidan taqlidchan bo’lib, ko’rgan narsasini, eshitgan so’zini darrov ilg’ab oladi. Bolalardagi bunday taqlidchanlik ularning axloqiy va estetik tarbiyasiga katta ta’sir etib, xulq-atvorini go’zallik ideallari bilan boyitishi mumkin. Chunki katta yoshdagi odamlarning xulq-atvori, muomalasi, didi, aql-zakovati, yurish-turishi, kiyinishi, zehn va idroki, uy tutishi bolaning nazaridan chetda qolmaydi. Katta odamlar bunga ahamiyat bermasliklari mumkin, lekin bola har doim zimdan nazar solib yuradi. Vaholanki, taqlidchanlik bolaning insoniy fazilatlar, estetik kechinmalarni o’rganish vositasi hisoblanadi. Shunday ekan, bolalik uyda katta odamlar nojo’ya xulq-atvor va qo’pol hatti-harakatlarga yo’l qo’ymasligi, har jihatdan, ya’ni axloq, odob va estetik jihatdan bolalarga o’rnak bo’lishlari kerak.

Demak, televideniya orqali efirga taralayotgan badiiy-estetik mahsulotlar, ayniqsa, yoshlari qalbiga tezroq kirib boradi va ta’sir etadi. Inson qalbiga yo’l – murakkab va mas’uliyatli vazifa. Chunki globallashuv davrida xalqimiz ma’naviy olamiga turli salbiy ta’sir va tahdidlar kuchayishi va ko’payishi mumkin. Bu jarayonning salbiy oqibatlariga qarshi kurashishning birdan-bir yo’li ma’naviyatni ko’tarish, yuksak ma’naviyatga erishishdir. Chunki yuksak ma’naviyat – engilmas kuch.

Ma’naviyati yuksak jamiyat ham, shaxs ham buzg’unchi g’oyalar, estetik jihatdan axloqsizlikka asoslangan omillarga qarshi turishda o’zida kuch-qudrat topa oladi. Buning uchun qanday ishlarni amalga oshirish haqida Prezident Islom Karimov metodologik ahamiyatga molik fikr-mulohazalar bildiradi. Inson qalbiga yo’l topish uchun, Islom Karimov ta’kidlaganidek, «Ta’lim-tarbiya sohasidan boshlab, matbuot, televideniya,

internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomlik va haykaltaroshlik san'atigacha, bir so'z bilan aytganda, insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta'sir o'tkazadigan barcha sohalardagi faoliyatimizni xalqning ma'naviy ehtiyojlari, zamon talablari asosida yana kuchaytirishimiz, yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur».

Demak, mamlakatimizda inson qalbiga yo'l, uni ma'naviy boy, axloqan pok, irodasi butun, mustaqil fikrlovchi va Vatan istiqboli uchun kurashga, mehnat qilishga tayyor etib tarbiyalashga bo'lgan ma'naviy-mafkuraviy va axloqiy-estetik sa'yи-harakatlar ana shunday istiqbolli nazariy va amaliy tamoyillarga asoslangan.

Jamiyatda milliy-badiiy qadriyatlarning ko'payib borishi bilan insonlarning bilimlari va nafosat to'g'risidagi tushunchalari, hayotga zavqiy munosabatlari o'zgarib, zamonaviylashib boradi. Yangi yuzaga keladigan milliy-badiiy qadriyatlар an'anaviy qadriyatlар bilan bog'lanib, ma'naviyat olamini boyitadi va estetik ideallar mazmunini kengaytiradi.

Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya: lot. «estezio»—«go'zallikni his etaman» ma'nosini bildiradi) shaxsni ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish, to'g'ri tushunishni o'rgatish, ularning estetik didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, shuningdek, go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalash jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi sanaladi. Aqliy, axloqiy, mehnat tarbiyasini estetikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Nozik didli bo'lish, go'zallikni fahmlay olish va qadrlash, badiiy madaniyatni tushunish, xullas, o'z hayotini go'zallik qonunlari asosida qura olish komil insonning eng zaruriy fazilatidir.

Nafosat tarbiyasi, eng avvalo, har bir kishida badiiy hissiyot tuyg'ularini, badiiy didni tarbiyalashdir. Bundan yuksak nafosatlilik aql-zakovatdan xoli bo'ladi, degan ma'noni tushunmaslik kerak. Shaxsning barkamol bo'lib shakllanishida bu ikki tomon bir-birini to'ldiradi. Chinakam san'at asarida hissiyot chuqur g'oyaviy –aqliy mazmun bilan birikib ketadi. Nafosat tarbiyasi aql bilan hissiyotni tarbiyalash, yanada aniqroq qilib aytganda, hissiyot vositasi bilan aqlni tarbiyalashdir. Bu ikki tomon bir-biri bilan uzviy bog'langandir.

Xalqimizda “Oq bo'lmasin, pok bo'lsin”, “Pokliging- sog'liging”, “Sog' yuray desang ozoda bo'l”, “Yaxshi libos tanga oroyish” kabi maqollarini bilan yoshlarimizni tabiat va jamiyatdagi go'zalliklarni ko'ra bilishga, ularni qadrlashga o'rgatib kelishgan. Bundan tashqari Sharq murafakirlarining ma'naviy merosida estetik tarbiya masalalari keng yoritilgan.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida turmush masalalariga a'lohida e'tibor bergan. Har bir axloqan barkamol inson o'zining turmush tarzini ham uyg'un go'zal eta oladi. *Uyg'unlik – go'zallik nafosatning asosi* sanaladi. Beruniy insoniy xislatlardan muhimi - ozodalik, tarbiyalilik bo'lsa, insonga eng yaqin narsa uning tabiat, ruhi deydi. Shuning uchun inson o'z tabiatiga yoqadigan ishlarni bajarishi lozim deb ko'rsatadi. Bunda insonning ichki dunyosi bilan tashqi go'zalligi, turmush tarzidagi go'zallikning uyg'un bo'lishini talab etadi. Bunga inson kiyadigan kiyimidan tortib, kundalik turmushdagi yurish – turishi, so'zi, qalbi, qilgan ishi-hammasining go'zal bo'lishi ta'kidlangan. Har bir shaxsda sharm-hayo, ozodalik, nafis did, iffat, latofat,

shirinsuhanlikning tarkib topishi turmushning yanada go'zal bo'lishiga olib keladi.

Olimning inson turmushiga xos xulq-odob qoidalari haqidagi fikrlari pedagogik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Inson ham ichki, ham tashqi tomondan go'zal bo'lsagina haqiqiy kamolotga erishishi mumkin deydi. U ozodalik va orastalikni olivjanoblik bilan tenglashtiradi. Inson doimo bularga rioya etishi zarur deb ta'kidlaydi. Bunda inson o'zini boshqara olishga qodir bo'lishi, har bir yetuk inson uchun zarur bo'lган xislatlarni tarkib toptirishga kuch va irodaga ega bo'lishi zarur deydi. "Mineralogiya" asarida bu fikrni quyidagicha ifodalarydi: "Inson o'z ehtiroslariga hukmron, ularni o'zgartirishga qodir, o'z jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatdan maqtagulik narsalarga aylantirishga hamda asta-sekin, axloq haqidagi kitoblarda ko'rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir".

Jahonga mashhur olim, adib va shoир Abulqosim Mahmud Ibn Umar Az-Zamahshariy "O'git va nasihatlarning oltin shodalari" risolasida shunday yoziladi:

- Xushsurat va yaxshi xulqlar ziynatlamagan kimsani ipak kiyimlar ziynatlay olmaydi.
- Go'zal yuz va chiroyli ko'rinish ko'ngilda shodlik paydo qilur.
- Insonning kiyimiga qarama- bilimiga qara.
- Ayol kishiga uning husni – jamoli uchun emas, balik uning pokiza iffati bilan ja'm bo'lgandagina haqiqiy barkamollik sodir bo'ladi.

Ibn Sino butun musulmon Sharqining ulkan qomusiy aqli, jahon ilmi va madaniyatining eng mashhur namoyondalaridan biridir. Ibn Sino yosh

bolalarni tug'ilganidan boshlab tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor beradi. Bola tug'ilganidan boshlab oyoqqa turguncha ma'lum tartibda tarbiyalanib borishi mumkin. Bu tartib o'z vaqtida ovqatlantirish, cho'miltirish, uxlatish, yo'rgaklash kabi tartiblardan iborat. Bularni ham muayyan qoidalar asosida amalgam oshirish zarur. Bola tabiatini mustahkamlashdagi vositalar asta-sekin tebratish, musiqa eshittirish, ashula aytishdan iborat bo'lib, ular tartib bilan amalga oshirilsa, bola yaxshi uxlaydi. Tebratish uning tanasiga, musiqa uning ruhiyatiga orom baxsh etadi. Ibn Sinoning go'zallik, nafosat haqidagi fikrlari uning fors va arab tilida yozilgan she'rlarida badiiy asarlarida go'zallik, musiqa, she'riyat haqidagi falsafiy fikrlarida o'z ifodasini topgan. Uning nafosat haqidagi tushunchalarini o'rganishda uning "Kitob-ash-shifo" asarida mustaqil bo'lim shaklida berilgan "Ash-She'r" kitobi muhim ahamiyatga ega. Ibn Sino o'zining "Uy-joy tutish tadbiri" asarida ayollarning o'n yetti xislatini ko'rsatadi. Ular quyidagilar: oqila va e'tiqodli, sharm-hayoli va or-nomuslilik, ziyrat va farosatlilik, yoqimtoy, o'z eriga mehr-muhabbat qo'ygan, farzand ko'ra oladigan, ezma bo'lмаган, dili pok, itoatkor, pokiza, jiddiy va ulug'vor. Bolani tarbiyalashda unga nafosat tarbiyasini berishda avvalo onaning o'zi fahm-farosatli, ziyrak bo'lishini ta'kidlaydi.

O'quvchilarni estetik tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining merosidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi va o'z ijobiy natijasini beradi.